



## Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar  
va metama'lumotlar

### I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 17,8 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi<sup>1</sup>




Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-sod Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi



	2024-yil 1-iyul holatiga, birlik	2025-yil 1-iyul holatiga, birlik
Navoiy shahar	4 164	4 373
Zarafshon shahar	1 209	1 197
G'ozg'on shahar	399	412
Konimex tumani	870	763
Qiziltepa tumani	2 540	2 441
Navbahor tumani	1 848	1 791
Karmana tumani	2 854	2 969
Nurota tumani	1 208	1 140
Tomdi tumani	498	360
Uchquduq tumani	683	592
Xatirchi tumani	2 146	1 728

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



#### Mavzuga doir ko'satkichlar:

[Faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)


## II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-iyunida 1508 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 7 583 ta, sanoatda 2 532 ta, boshqa xizmatlarda 3112 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 119 ta tashkil etilgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 513 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 246 ta, sanoatda 236 ta hamda boshqa xizmatlarda 149 tani tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Navoiy shahar	369	448
Zarafshon shahar	102	109
G'ozg'on shahar	44	37
Konimex tumani	139	43
Qiziltepa tumani	186	167
Navbahor tumani	172	128
Karmana tumani	199	313
Nurota tumani	76	77
Tomdi tumani	65	17
Uchquduq tumani	58	35
Xatirchi tumani	148	134

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

- [Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)
- [Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)




### III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi

2025-yilning yanvar-iyunida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 21,2% ni tashkil qilib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan -0,3 % ga kamaygan

#### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi



#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi

2025-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 97,7 %, qurilishda – 78,4 %, xizmatlar sohasida – 58,3 % va sanoatda – 8,9 % ni tashkil qildi.

#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YAIMdagi ulushi (choraklik)

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 789,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 8,9 % ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi G'ozg'on shahri (100,0%), Tamdi tumani (100,0%), Uchquduq tumani (99,6 %), Zarafshon shahri (99,6%) va Qiziltepa (93,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) dagi ulushi \(choraklik\)](#)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 4 691,6 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 78,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (100,0 %), G'ozg'on shahri (100,0 %) va Karmana (95,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi**



### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)  
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8 685,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 47,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 137,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Nurota tumani (98,6 %), G'ozg'on shahri (95,5%), Zarafshon shahri (95,3 %) va Qiziltepa (84,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Yillar

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)  
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 9 028,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (100,0 %), Uchquduq tumanida (99,8 %), G'ozg'on shahri (99,7%) va Tomdi (99,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish hajmi (choraklik)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarishdagi ulushi (choraklik)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 6 503,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 91,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi engko'p ulushi Uchquduq tumanida (99,4 %), Tomdi tumanida (99,0 %), Qiziltepa tumanida (98,5 %) va G'ozg'on shahar (98,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



### Mavzuga doir ko'satkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning ximatlar sohasidagi hajmi 6 205 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 54,8 %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 111,2 %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Xatirchi tumanida (81,3 %), Uchquduq tumanida (80,9 %), Nurota tumanida (78,1 %) ni tashkil qildi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)




### Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 30,8 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 4,7 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Uchquduq tumani, Tomdi tumani, Qiziltepa tumani, G'azg'on shahar, Konimex tumanlari 100,0 % va Zarafshon shahrida 77,0 % ni tashkil qildi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 90,0 million AQSH dollarini yoki jami importning 41,7 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchquduq tumani, Tomdi tumani,G'ozg'on shaharlari,100 % Qiziltepa tumanida 99,7 %,ni tashkil etdi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

#### IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 9,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,1 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 40,8% ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,1 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,9 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 88,8 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



#### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


## V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

### Umumi iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumi iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 46,7% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida esa 59,4 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 12,7 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 50,0 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida 35,3 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-iyunida 3,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 5,3 % ga yetgan.

### Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar -iyun oylarida umumi iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




### Umumi iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar -iyunida 58,4 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida 61,7 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-iyunida 42,6 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-iyunida 37,3 % yoki 5,3 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-iyunida 2,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 1,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq xo'jaligida 69,2 % ni, savdo sohasida 60,0 % ni va xizmatlar sohasida 59,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda, 40,0 % ni, savdo sohasida 36,3 % ni va xizmatlar 35,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda 11,4 % ni, qurilish sohasida 7,3 % ni va xizmatlar 5,3 % ni tashkil etdi.



## Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



### VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxitidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>  
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>  
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo'yicha-ulushi.pdf>



---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Tadbirkorlik subyektlari  
kuzatuvlari bo'limi

**Ijrochi:**  
M.Uzoqov  
79 223-57-61

**Manzil:**  
210100, Navoiy sh.,  
Amir Temur ko'chasi, 4